

O'qituvchining o'z-o'zini tarbiyalashi

Nilufar Sharopova
QXTXQTMOI Pedagogika, psixologiya va
ta'lim menejmenti kafedrasi o'qituvchisi

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” g'oyalarini amaliyotga tadbqiq etish Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi-murabbiylar faoliyatiga bog'liq. Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, bunda jamiyatda faoliyat yuritayotgan pedagoglar jalb etiladi. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga jiddiy talablar qo'ymoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov quyidagicha ta'riflaydi: “Tarbiyachi –ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand bo'lish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro qilib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak”.¹

O'qituvchi (pedagog)- pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs hisoblanadi. O'qituvchi shunday ekan, o'z ustida mustaqil va tinimsiz ishlashi, bilimni yanada oshirib borishi lozim. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalab borishi shart.

O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi uchun, avvalo o'zini atroflicha chuqur o'rganishi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko'ra olishi kerak. O'z-o'zini o'rganish va boshqa kishilarni anglash uchun ham zarurdir. Boshqa yutuqlarni o'rganmay, o'zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglash, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi.

Eng avvalo o'qituvchi o'zida pedagogik qobiliyatning qanday xislatlari borligini o'rganishi kerak. Pedagogik faoliyaga muhabbat qo'ygan o'qituvchi ishga chin ko'ngildan berilib ishlaydi, hech qanday formalizmga yo'l qo'ymaydi. O'z kasbini sevgan o'qituvchi doimiy ravishda g'oyaviy-siyosiy saviyasini oshirish va bilim doirasini kengaytiradi, o'z predmetini chuqur bilish ustida qunt bilan ishlaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash o'z faoliyatini tahlil qilishdan va o'z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O'qituvchi o'z ustida ishlash, o'z-o'zini tarbiyalashda quyidagi uslublardan foydalanadi.

1. O'z-o'zini bilish:
 - a) o'zini kuzatish
 - b) o'z harakatlarini taxlil etish
 - v) o'z-o'zini sinash
 - g) o'rtoqlarining fikrini tushuna olish.
2. O'ziga baho berish:
 - a) o'z-o'zini tanqid qilish

¹ Taxtaxo'djayeva M. Pedagogika. T. 2005, 14-bet.

b) o'ziga xarakteristika berish

v) o'z-o'zini taqdirlash

O'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O'z shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlarini muhokama qilishga o'rgatadi. O'z-o'zini nazorat qilish uchun o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishini kuzatib boradi. O'z-o'zini baholash o'qituvchiga o'z imkoniyatlarini baholashga, o'zidan qoniqish hosil qilishga yordam beradi.

O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash bilan birga o'z ustida tinmay ishlab, o'zining g'oyaviy-siyosiy ongini doimiy ravishda o'stirib va pedagogik mahoratini takomillashtirib boradi. O'qituvchi o'zning butun kuch-quvvatini, imkoniyati, o'zida bor hamma qimmatbaho narsalarni o'z o'quvchilariga, xalqqa beradi. Shu bilan birga o'z bilimi, tajribasi, imkoniyatlari va saviyasini to'ldirib borishi ham kerak. O'qituvchi, bir tomondan, o'zida borini beradi, ikkinchi tomondan, o'ziga xalqdan, hayotdan, fandan hamma yaxshi narsalarni olib hazm qiladi va o'zlashtirgan hamma yaxshi narsalarni yana yangidan bolalarga beradi.

Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalaridan foydalanishga umumlashtirishga harakat qiladi.

Har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lish uchun birinchi navbatda o'z-o'zini tarbiyalashi kerak. Agar shaxs izlansa, o'z qobiliyatlari ustida ishlasa, o'zidagi yaxshi fazilatlarni kamol toptirsa, uning obro'si, mavqei ham shu darujada yuksaladi, doimo el nazarida bo'ladi. O'qituvchi o'zida kuzatuvchanlikni, odilona talabchanlikni, samimiyatni, g'amxo'rlikni tarbiyalashi lozim. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasiii oshirishi zaruriy shartlardandir. Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib o'rgansa o'qituvchi bo'la oladi, agar u o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb haqqoniy aytganlar.